O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINING O‘Z XOS JIHATLARI

Kamola Egamberdiyeva,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19543927

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot o‘zbek adabiyotida ayol obrazining o‘ziga xos badiiy-estetik va g‘oyaviy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Ayol obrazi milliy mentalitet, tarixiy tajriba va ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, adabiy asarlarda ona, yor, sadoqatli ayol, fidoyi va ijtimoiy faollik kasb etgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda ayol obrazining an’anaviy va zamonaviy talqinlari, ularning badiiy tafakkur evolyutsiyasidagi o‘rni, ramziy mazmuni hamda ijtimoiy-falsafiy yuklamasi ochib beriladi. Shuningdek, ayol obrazining milliy adabiyotda badiiy xarakter yaratish jarayonidagi funksional ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, o‘zbek adabiyoti, badiiy xarakter, milliy qadriyatlar, estetik talqin, an’anaviylik va zamonaviylik, ijtimoiy g‘oya.*

Annotation. *This study focuses on the distinctive artistic, aesthetic, and ideological features of the female image in Uzbek literature. The representation of women is closely connected with national mentality, historical experience, and spiritual values, and is depicted in literary works as mothers, beloved figures, loyal women, devoted individuals, and socially active personalities. The research examines traditional and modern interpretations of the female image, highlighting their role in the evolution of artistic thought, symbolic meanings, and socio-philosophical implications. Special attention is given to the functional significance of female characters in the process of creating artistic characterization in Uzbek literature.*

Keywords*: female image, Uzbek literature, artistic character, national values, aesthetic interpretation, tradition and modernity, social ideas.*

Аннотация. *Настоящее исследование посвящено анализу своеобразных художественно-эстетических и идейных особенностей образа женщины в узбекской литературе. Формирование женского образа рассматривается в тесной связи с национальным менталитетом, историческим опытом и духовными ценностями. В литературных произведениях женщина предстает как мать, возлюбленная, верная спутница, самоотверженная личность и социально активный субъект. В работе анализируются традиционные и современные интерпретации женского образа, его символическое содержание, а также социально-философская значимость в развитии художественного мышления.*

Ключевые слова*: образ женщины, узбекская литература, художественный характер, национальные ценности, эстетическое осмысление, традиция и современность, социальная проблематика.*

Kirish. Turli xalqlarning mifologik dunyoqarashida ayol obrazi ramziy va ma’noviy to‘ldirildi, epos, folklor, madaniyat va kundalik hayotda aks ettirildi. Ayol obrazini nazariy tushunish falsafiy refleksiyaning paydo bo‘lishi, Sokrat va uning o‘z-o‘zini anglash muammosi hamda antropoligik muammolarning tug‘ilishidan boshlab paydo bo‘ldi”. Yuqorida tilga olingan dissertatsiya ishlari madaniyat tarixi, nazariyasi va san’atshunoslik fanlari yo‘nalishida qilingan. Bevosita, adabiyotda Ayol obrazining ishlanishi masalasiga

doir K.Batmanova, Y.Berezkova, Pak Chjin Xvan, Gavhar Sharafzoda, L.Lukyanova, N.Vorobeva, Noruzi Maxnaz, Y.Afanaseva va boshqalarning dissertatsiyalarini ko‘rsatish mumkin. Shulardan ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz. Jumladan, Gavhar Sharafzodaning “XI-XII asrlar fors-tojik nasriy adabiyoti va xalq dostonchiligida Ayol obrazi evolyutsiyasi” nomli dissertatsion ishida eng qadimiy og‘zaki adabiyot namunalari “Kalila va Dimna”, “Panchatantra”, “Ming bir kecha”, shuningdek, “Qobusnoma”, “Samak va ayyor”, “Mehr va Moh”, “Shohnoma”, “Rustamnoma”, “Qissas ul anbiyo”, kabi qator asarlar tahlil etilgan . Shuningdek, N.Maxnazning “Zamonaviy rus-fors nasrida Ayollar obrazi” nomli qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishida qilingan dissertatsiyasida rus-fors nasrida Ayollar obrazining tipologik (eng qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha) nuqtalari, zamonaviy Eron va Rossiya yozuvchilari asarlaridagi ayollar obrazining kompratividstik tahlili o‘rganilgan. Eng qizig‘i, tadqiqotchi Eron va Rossiya zamonaviy prozasida Ayollar nasrining fenomen sifatida shakllanganini ko‘rsatib bergan. Bu masala maxsus bitta faslda tadqiq etilgan.

Adabiyotlar sharhi. Rus olimi Y.Afanasevaning “M.Jukova nasri: XIX asrning ikkinchi uchinchi yarmida rus adabiyotida ayol olami va dunyoqarashi” nomli dissertatsion ishida syujet poetikasi, M.Jukova ijodida Ayol siklidagi qissalar, syujet situatsiyasi va kolliziya, syujet va kolliziyani o‘zgartiruvchi motivlar (musiqa motivi, telbalik motivi, suiqasd motivi), maktub – ayol ichki dialogizmi kabi nihoyatda qiziqarli masalalar jiddiy va atroflicha o‘rganilgan. N.Vorobevaning dissertatsion ishida esa 1980-2000-yillardagi Ayollar nasri: dinamika, problematika, poetika masalalari maxsus tadqiq etilgan. Olima shunday yozadi: “Mazkur ish ayol nasri muammolariga bag‘ishlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Aniq ilmiy ta’rifdan uzoq bo‘lgan ushbu toifa adabiyotda va tanqidda 1980-1990-yillarning boshlarida paydo bo‘lgan. “Ayol haqidagi yosh nasr”, “Ayol haqidagi yangi nasr” so‘z birikmalari ayol mualliflar tomonidan yozilgan adabiy to‘plamlarning sarlavhasida qat’iyat bilan qo‘llanila boshlandi: “Чистенкая жизн: молодая женская проза ”(1990), «Не помнящая зла: новая женская проза» (1990), «Новые амазонки»(1991). Shu vaqtda ayol nasri haqida tanqidiy fikrlar ham bildirildi: “Сущэствует ли «женская проза»?” [Dark 1991: 257]; “впервые мы говорим о женской прозе, осознающэй себя таковой” [Gessen 1991: 11]; “Судья по всему, у нас появилас женская проза” [Абашева 1992: 9]; «понятие женская проза утвердилос» [Павлов1996: 106]. Albatta, ayollar ilgari ham ijod qilishgan, ammo ularning badiiy asarlari o‘zgacha ta’riflarga sazovor bo‘lgan. Masalan, XIX asr boshlaridagi Moskvada chop etiladigan (“Журнал для милых” (1804), «Московский Меркурий» (1805), “Aglaya” (1808), “Kabinet Aspazii” (1815), “Damskiy jurnal” (1832)) jurnallarda faqat o‘z davr ruhida modifikatsiyalangan “sohibjamol rus ayoli”, “rus Safosi” sifatida “ayol-yozuvchi”, “ayol-shoira” kabi tushunchalarni uchratish mumkin. XIX asrning 40 yillarida

rus tanqidchiligida “ayol adabiyoti”, “ayol ijodi”, “ayol estetikasi” (V.Botkin, N.Billevich, V.Belinskiy, O.Senkovskiy, N.Verevkin) kabi tushunchalar ishlatila boshlandi. Ushbu ta’riflar ayol ijodkorligini adabiyotning o‘zidan ajratib turadi. Shu ma’noda V.G.Belinskiyning fikr yuritishi xarakterlidir: XX asr boshida “ayol qissasi” degan tushuncha paydo bo‘ladi.

Natijalar. Umuman olganda, rus adabiyotshunosligida qilingan tadqiqotlar nihoyatda qiziqarli tarzda ishlangan. Afsuski, o‘zbek adabiyotshunosligida bu qadar tizimli va izchil monografik tadqiqotlar yaratilmagan. O‘zbek adabiyotshunosligida Ayollar prozasini alohida monografik tadqiqot sifatida ishlash mumkin. Xususan, zamonaviy o‘zbek nasrida faol bo‘lgan Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Shahodat Isaxonova, J.Ergasheva kabi o‘nlab ayollar ijodini talqin va tadqiq etish mumkin. L.Lukyanovaning “A.P.Chexov hikoyalarida Ayol xarakteri: “ayol jumbog‘i” bo‘yicha diskussiya” dissertatsion ishida adib hikoyalarida (80-yillardagi) Ayollar obrazini yaratishdagi gumanistik talqin, XIX asr Rossiya ijtimoiy va adabiy hayotida “Ayollar masalasi”, 90-yillar Chexov hikoyalarida g‘oyaviy-estetik muammolar evolyutsiyasi kabi qator muammolar o‘rganilgan. Rus olimlari Chexov asarlaridagi Ayollar obrazini juda ko‘p tadqiq qilishgan. Masalan, bu o‘rinda Pak Chjin Xvanning “Chexov nasrida ayollar obrazi” dissertatsiyasi misol bo‘ladi. Tadqiqotchi mazkur monografik ishida Chexovning ilk ijodiy bosqichida (1880-1887-yillar qissa va hikoyalarida) Ayol obrazini yaratish usullari; ikkinchi bosqichdagi Ayollar obrazi transformatsiyasi; 1895-1904-yillarda Chexov nasrida Ayollar obrazi evolyutsiyasi deb nomlangan boblarda o‘rgangan. Bundan tashqari, tarix fani yo‘nalishidagi ishlarda ham Ayollarning XXI asr ijtimoiy hayotdagi o‘rni, gender tenglik kabi ko‘pdan-ko‘p siyosiy-tarixiy muammolar ham tadqiq qilingan. Olima Y.A.Shabatura ushbu dissertatsiyasida juda qiziqarli kuzatishlar qilishga erishgan. Jumladan, “Yangi Ayol” obrazining shakllanishida davlat partiyasining siyosiy qarorlari, Tadqiqotchi “Yangi Ayol obrazi”ning adabiyotda ham aks etganini ta’kidlab shunday yozadi: “Ayollarning xulq-atvori modellarini qo‘llab-quvvatlaydigan g‘oyalar publitsistika singari badiiy adabiyot matnlari ham bo‘lib qoladi. Partiyaning ushbu tashviqotga bo‘lgan katta e’tiborini “Ishchi va dehqon ayollari kutubxonalari” (“Библиотечки работнисы и крестянки”) ning turli xil adabiyotlarni: davlat va siyosiy arboblarning maqolalari va nutqlari, rabselkorlarning hikoyalari, she’rlar to‘plamlari ko‘rinishidagi tashviqot materiallari, sudlari va spektakllarni o‘z ichiga olgan ulkan tirajlari guvohlik beradi. Bundan tashqari, partiya mafkurachilari kinosan’atining ahamiyatini tashviqot ishining manbai sifatida tan olishdi. Bayon etishning an’anaviy turlari – ertak, qissa, she’r, qo‘shiq va afsonalar taqdimotning asosiy talabiga aylandi. Mafkuraning an’anaviy tan olingan shakllarini yaratishga intilishi an’anaviy ayol mavzulari va syujetlaridan yangi ayol taqdirining adabiy tavsiflarida foydalanishda kuzatiladi. “Yangi ayol” ga bag‘ishlangan adabiyotda sevgi liniyasi sinfiylik

bilan aralashtirilgan, sevgi mojarosi, odatda, sinfiy qarshilik bilan bog‘liq”.

Tojikistonlik tadqiqotchi G.X.Muxabbatovaning nomzodlik ishi ham ko‘p jihatdan Shabaturaning ilmiy tadqiqot ishiga yaqin. Bu dissertatsiya ham tarixiy aspektda bo‘lib, unda “Tojikiston Respublikasida madaniy o‘zgarishlarda ayollarning hissasi” muammosi o‘rganilgan. Unda olima taraqqiyot va tashkilotchilikda ayolning roli, madaniy va ma’rifiy harakatlarda ayolning hissasi, san’at taraqqiyotida ayolning ishtiroki masalalarini tojik ayollarining faoliyati misolida tadqiq etgan. Yangicha ekspremental so‘rovnomalar asosida rossiyalik Ayollar bilan amerikalik Ayollar taqqoslanib, muayyan xulosalar chiqarilgan yangi yo‘nalishdagi psixologik tadqiqotlar ham yaratilgan. Endi bevosita o‘zbek adabiyotshunosligida qilingan ishlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Ayollar obrazi maxsus ishlangan X.Lutfullayevaning dissertatsiyasida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” hamda Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanlaridagi Ayollar obrazi va yozuvchining estetik ideali masalasi o‘rganilgan . Unda olima “Kumush” va “Zebi” obrazlarini yozuvchining estetik ideali sifatida yaratilganini ikki bobda o‘rganadi.

Binobarin, tadqiqotchi X.Lutfullayeva yozadi: “Insoniyatning tamal toshi asosini tashkil qiluvchi ayol va uning obrazi hamda estetik ideal muammolarini tadqiqotimiz uchun mavzu qilib olar ekanmiz, uning muhimligi ayniqsa, hozirgi hayotimiz uchun dolzarblik kasb etadi. Chunki, ayol yer yuzidagi jamiki insoniyatni tug‘ib, voyaga yetkazgan, bashariyatning davomiyligini ta’min etuvchi zotdir”. Darhaqiqat, ayollarsiz bashariyat davomiyligi ham, adabiyot va san’at ham bo‘lishi mumkin emas. Tadqiqotchining fikr-mulohazalariga yaqin fikrni adabiyotshunos Z.Isomiddinov “Ikki ayol” maqolasida alohida ta’kidlagan: “Insonshunoslik bo‘lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzuining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq”. Olima dissertatsiyasida o‘zbek ayolining milliy qiyofasini yaratishda Abdulla Qodiriy mahorat bilan asarlar yozganini alohida ta’kidlaydi: “Ayol, qizlarimiz qiyofasini badiiy adabiyotga jonli va ishonarli qilib ko‘chirish yumushini Abdulla Qodiriy san’atkorona mahorat bilan uddalagan. Ayol-qizlarni o‘rni va qadrini joy-joyiga qo‘yib yaratish Abdulla Qodiriydek yozuvchilargagina xos fazilatdir. Chunki, ijodkor chin insonga qanchalar ehtirom bilan qarasa, ayol, qizlar tasviriga o‘sha munosabat bilan yondashadi. Har bir ism, har bir zotning bu asarda o‘z o‘rni, insonlik qadr-qimmati, o‘ziga yuklatilgan vazifasi bor”. Olima Cho‘lpon va Qodiriyning Zebi va Kumush obrazini yaratishdagi ayricha badiiy uslubini shunday ko‘rsatadi: “O‘tkan kunlar”da Kumush hech kimga o‘xshatilmaydi, qiyoslanmaydi. Yozuvchi gapni bevosita Kumushdan, undagi muhabbatning tug‘ilishidan boshlaydi. Cho‘lpon esa, asarini endigina yetilib, muhabbat yoshiga yetgan Zebining kayfiyatini,

holatini bahorga qiyoslash bilan boshlaydi" deb, ushbu klassik nosirlarning mahoratini asoslar bilan ko'rsatadi. N.Muxammedovaning "Margaret Drebbl asarlarida Ayol obrazi va uning ijtimoiy-estetik talqini" filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy ishi Yevropa, Amerika, Avstraliya tili va adabiyoti yo'nalishida yaratilgan . Yosh tadqiqotchi shunday yozadi: "Dunyo adabiyotida XX asrning II yarmida yaratilgan asarlarda ayol obraziga alohida e'tibor qaratilgan. Ayol siymosini asarning birinchi sathida tasvirlash, uning shaxs sifatida ijtimoiy maqomini ochib berish muammosi hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmadi. Zamonaviy ingliz yozuvchisi Margaret Drebbl prozasida ayol kulti va uning milliy koloriti yetakchi o'rinni egallaydi".

Xullas, tadqiqotchi N.Muxammedova Margaret Drebbl ijodining ingliz adabiyotidagi o'rni va ahamiyati, adiba ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, adabiy kontekst, mavzu va g'oya birligi, ayol obrazining ijtimoiy-ruhiy talqini, ayol obrazi mavzu va g'oyaning ifodasi sifatida, ayollar obrazining badiiy talqini, ayol obrazining o'ziga xosligi "Qizil libosli qirolicha" asarida Sharq ayol obrazini tadqiq etadi. Yosh tadqiqotchining masalaga tamomila yangicha qarashi va tahlillari mavjud.

Xulosa. Maqolada muxtasar ko'rib o'tilgan qator olimlarning ayol ruhiyati tasviriga oid fikr, qarashlari va ilgari surgan g'oyalarini xronologik tartibga ko'ra tizimlashtirsak, badiiy adabiyotda yangicha ayol qismati va ruhiyati tasviri quyidagi tarixiy-tadrijiy bosqichlarini bosib o'tdi deb hisoblash mumkin:

1. Islom davrida o'zbek adabiyotida ayol komil inson tushunchasi asosida shakllandi va rivojlandi. Bunda ayol haqqa, xudoga yetishishi va unga qo'shilib ketishiga urg'u berildi.

2. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida boshlangan yangicha qarash va xalq hayotidagi o'zgarishlar badiiy adabiyotdagi ayol va uning tasviri ham yangicha bo'lishiga omil bo'ldi. Endi ayol avvalgidek o'ta subyektiv yoki hammasini Yaratgandan kutish kerak degan aqidadagi kishi emas, balki ijtimoiylashgan, o'z muammosi va qiziqishlariga javob izlashga urinayotgan ayol sifatida bo'y ko'rsata boshladi.

3. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol qismati, ruhiyati tasvirining tadrijiy taraqqiyoti bosqichlari quyidagicha: bozor ayollari, tafakkur ayollari, o'zga olam ayollari, g'ayritabiiy xususiyatga ega ayollar, ezgu va yovuz niyatli ayollar.

Maqolada qo'yilgan ilmiy muammo yuzasidan mulohazalarimiz yakunida shuni qayd etamizki, "ayol qismati, uning ruhiyati" uzoq tarixiy asoslarga ega. Har bir davr uni o'zgartiradi, bu esa ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy asoslar, omillar ta'sirida yuz beradi va badiiy adabiyotda o'ziga xos izini qoldiradi. Ana shu "iz" badiiy adabiyotdagi ayol qismati, ruhiyati konseptining yuqorida keltirilgan xronologik tartibdagi taraqqiyot bosqichlari shakli sifatida olinishi kerak. Ayol botini, uning borlig'i, qismati va ruhiy holatini qalamga olinishi milliy tafakkurda hech bir ijodkorni, ayniqsa, ayol

hikoyanavislarni befarq qoldirmagan. Markaziy g‘oyasi va qahramonlari ayolni tashkil etgan badiiy asarlar esa bugngi kundagi tadqiqotlarga zamin bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatı:

1. Дўстмуҳаммад Х. Ҳикояларда ҳаёт ва хаёл ҳақиқати. “Шарқ юлдузи” ж., № 4, 2011. 142-бет.
2. Умиров Ҳ. Адабий ижод асослари. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – Б. 83.
3. Мухаммедова Н. Маргарет Дреббл асарларида Аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини: Филол. фан. б-ча ф-фа д-ри. дисс автореф. – Тошкент: 2019. – Б. 50.
4. Қуролбой қизи З. Ўлим ҳеч нарса эмас. Ҳикоялар. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 297-305-бетлар.
5. Hoshimov O‘.O‘zbeklar. – Toshkent: 2019. – 231 b.